

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## **Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

## **Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

## **Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

## **Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar .....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich</b> , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni .....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganov</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdag'i yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 <b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 <b>Berdiev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....253 <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....258 <b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....263 <b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....269 <b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 <b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....284 <b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....288 <b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....292 <b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....297 <b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....302 <b>Муяддинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 <b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 <b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 <b>Тажимуратов Умид Рузматович</b> , <b>Бахриев Иброхим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....333 <b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 <b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 <b>Tosheva Ziroat Aliqul qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uzbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
<b>Tursun Muxitovich Ahmedov</b> , i. ф. д., prof.; <b>Gavhar Rustamovna Xidirova</b> , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b> , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
<b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
<b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullu Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	



# KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich**

Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'chmas mulklarning iqtisodiy ahamiyati, ko'chmas mulkka soliq solish mulkning raqobat-bardoshligini oshirib, soliq solish bazasini belgilashdagi muhim o'ringa ega ekanligi tahliliy asoslanib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, ko'chmas mulk, kadastral cost, shaxsiy kartochka, soliq elementlari, dasturiy mahsulot, inventar qiymat.

**Abstract:** In this article, the economic importance of real estate, the fact that real estate taxation increases the competitiveness of property and has an important place in determining the tax base, are developed based on the analysis, and relevant recommendations are developed.

**Key words:** local tax, rynochnaya stoimost imushchestva, real estate, cadastral cost, personal card, tax elements, software product, inventory cost.

**Аннотация:** В данной статье на основе анализа раскрывается экономическое значение недвижимого имущества, то, что налогообложение недвижимого имущества повышает конкурентоспособность имущества и занимает важное место в определении налоговой базы, ирабатываются соответствующие рекомендации.

**Ключевые слова:** местный налог, рыночная стоимость имущества, недвижимость, кадастровая стоимость, личная карточка, налоговые элементы, программный продукт, инвентарная стоимость.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivoj-lantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirish masalalari yoritib berilgan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi natijasida tarmoqlar va mintaqalarning barqaror rivojlanishi ta'minlanib mahalliy byudjetlarning daromad manbayi oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bo'limida "Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy byudjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish lozim deb belgilandi [2].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", keng jamoatchilik muhokamasi natijalari, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Juhon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib:

2023–2025-yillarga mo'ljallangan Fiskal siyosatning asosiy yo'nalishlarida Ko'chmas mulk obyektlarini (binolar, inshootlar va yer uchastkalari) bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastral qiymatdan mol-mulk va yer



soliq'ini hisoblash mexanizmi bosqichma-bosqich joriy etish hamda kelajakda ko'chmas mulkni soliqqa solishni takomillashtirish orqali mol-muk solig'i va yer solig'i o'rniغا ko'chmas mulk solig'i joriy etish belgilab qo'yildi.

Ko'chmas mulkni tasarruf etish va undan oqilona foydalanish ko'chmas mulklarning iqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi.

Mahalliy byudjet daromadlari bazasini tashkil etishda ko'chmas mulklarning iqtisodiy ahamiyati yuqori bo'lib, daromad manbayidan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, mahalliy soliq va yig'implarning ma'muriyatichiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi bu sohada tegishli chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda keng qo'llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish kerakligini taqozo etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida byudjet daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma'muriyatichilagini takomillashtirish orqali mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi.

Mol-mulk va yer soliqlari davlat byudjetini shakllantirishda o'z o'rniغا ega. Yer va mol-mulkni soliqqa tortish tizimi azaldan mavjud bo'lib iqtisodiy soha olimlari uni soliqqa tortish bo'yicha turli xil qarashlarini ifoda etib kelganlar. Quyida keltirilgan jadvalda iqtisodiy olimlarning bu boradagi fikrlari jadval shakliga keltirilgan:

**1-jadval:** Ko'chmas mulkni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda soliqqa tortish va soliq solish tushunchalarini asoslashga nazariy yondashuvlar<sup>1</sup>

Mulk obyekti	Foydalanish maqsadi	Soliqqa tortish yondashivi
Yer uchastkasi	Ishlab chiqarish	- yetishtirilgan mahsulotga qarab (G. Djorj); - soliqqa tortish baholangan yoki haqiqiy ijara qiymatiga nisbatan asoslanish (A. Smit)
	Shahar yerlari	- o'sish qiymati ta'minlanmagan binolarni musodara qilish (DJ. St. Mill) - binolar ostida joylashgan yerni soliq solish bazasidan chegirish (A. R. J. Tyurgo)
Binolar va kapital qurilishning boshqa obyektlari	Ijara	- ijaraidan olingan daromaddan soliqqa tortish (fiziokratlar) - qurilish xarajatlari va yer ijarasidan kelib chiqib soliqqa tortish (A. Smit)
Quyidagi ko'chmas mulklar soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi		
Yashash uchun mo'ljallangan binolar	Turar joy	- soliq to'lovchining daromadidan kelib chiqib soliqqa tortilmaydigan minimumni belgilash (A. J. Tyurgo)
	Hashamat	- asosiy ehtiyojdan ortgan obyektlar-ni soliqqa tortish bazasiga kiritish. (N. I. Turgenev) (I. I. Yanjul); - soliq to'lovchiga taaluqli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini hisobga olgan holda progressiv soliq tizimini joriy etish (I. I. Yanjul)

Fiziokratlar ta'limotining asoschisi Fransua Kene (1694–1774) Davlat xarajatlarini qoplashning asosiy ko'rinishlarining yo'nalishidan biri deb quyidagilarni ko'rsatib o'tdi:

- yer egalaridan olinadigan soliq;
- uy yoki ko'chmas mulkni ijara ga berishdan olingan daromadlarni soliqqa tortish orqali davlat xarajatlarini qoplash yo'llaridan biri sifatida e'tirof etdi.

Biz ham bu fikrga qo'shilamiz va bu amaliyot O'zbekiston Respublikasining har yilgi davlat byudjeti parametrlarida o'z aksini topmoqda.

Fransua Kene (1757-y.) bunday daromad olish usuli soliq to'lovchi uchun ortiqcha xarajat va og'ir mehnatga asoslanmagan foydani tashkil qilishini ta'kidlab o'tdi<sup>[3]</sup>.

Amerikalik siyosiy iqtisodiy soha bo'yicha olim Gerbert Saymon (1943-y.) iqtisodchi olim Dik Netser (1966-y.) ijara ga berilgan obyektlar uchun olinadigan yer va ko'chmas mulk solig'i summasi ularning haqiqiy ijara qiymatidan olinishi ko'chmas mulkka bo'lgan talabni va ijara haqi to'lovlarini pasayishiga xizmat qiladi deb ta'kidlab o'tdi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan o'rganishlar asosida mustaqil tayyorlangan.



Rossiyalik olimlardan I. A. Drojina o'zining qarashlarida yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini birlashtirib ko'chmas mulk solig'i joriy etishni taklif qilgan [4].

Y. V. Mixina o'zining qarashlarida ko'chmas mulk solig'ini joriy qilishning mahalliy byudjet daromadlari bazasiga ta'sirini tahlil qilib tegishli tavsiyalarni bergan [5].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlarning qarashlarida aholining ijtimoiy kam daromad oladigan qatlami yetarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaymiz.

T. A. Loginova o'zining ilmiy qarashlarida ko'chmas mulkni joriy qilish va uni amaliyotga joriy qilishda aholining ijtimoiy qatlamini inobatga olish lozimligini qayd qilib o'tgan [6].

O'zbek olimlaridan Niyazmetov Islambek Masharipovich ham bu borada fikr yuritib mol-mulk solig'i obyekti tarkibida faqat ko'chmas mulk obyektlarini qoldirib, uni yer solig'i bilan birlashtirib, yuridik va jismoniy shaxslar uchun bir xil tartibda amal qiladigan ko'chmas mulk solig'iga bosqichma-bosqich o'tish taklifini ilgari surgan [7].

S. Boymurotovning tadqiqotlarida "mamlakatimizda yer resurslari va ko'chmas mulklardan soliq undirishda amaldagi mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymatidan soliq hisoblash o'rni, xalqaro soliqqa tortish qoidalariiga muvofiq ko'chmas mulkarning bozor narxlarida baholab soliqa tortish tartibiga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq" [8] deb hisoblangan.

Biz ham yuqoridagi aytilgan fikrga qo'shilgan holda ko'chmas mulk solig'ini bosqichma-bosqich joriy etish va unda quyidagilarni inobatga olish zarurligini ta'kidlamoqchimiz:

- yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini belgilashda o'rtacha yillik qoldiq qiymatini inobatga olish;
- jismoniy shaxslar uchun kadastr yoki (bozor) narxiga yaqin narxda belgilash tizimlarini rivojlantirish lozimligini ta'kidlamoqchimiz.

Fikrimizcha, ko'chmas mulk solig'ini joriy etish negizida davlat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yer va mulk resurslaridan samarali foydalanish, aholining mulkka bo'lgan huquqlarini yanada mustahkamlash darajasi yotadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib resurs hamda mulkni soliqqa tortish tizimini bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirish zarurdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatning soliq siyosatini to'g'ri belgilashi ko'chmas mulkdan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.



1-rasm: Ko'chmas mulkni soliqqa tortishdan maqsad<sup>2</sup>

Bugungi kunda ko'chmas mulkka soliq solish dunyoning 100 dan ziyod mamlakatlariga amal qiladi. Ba'zi mamlakatlarga mulkka nisbatan soliq mavjud emas. Jumladan Estoniyada ko'chmas mulk soliqqa tortilmaydi. Slovakiya va Shvetsiya ham shular qatorida. Har bir davlatda mulk solig'ining o'ziga xos tizimi mavjud.

Jahon amaliyotida ko'chmas mulk uchun soliq yer va uning ustida qurilgan bino, yashash yoki tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun mo'ljallangan inshootlar uchun undiriladi.

Ba'zi mamlakatlarda mol-mulk va yer solig'i o'rniga ikkita soliqni qo'shgan holda ko'chmas mulk solig'i joriy etilgan. (AQSh, Italiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqalar). Rossiya Federatsiyasida bu soliqni amaliyotga joriy etish taklifi 2002-yilda ilgari surilgan edi. Bu soliq Rossiya Federatsiyasining ayrim hududlariga qo'llanila boshladi [9].

Ba'zi bir davlatlarda mol-mulk va yer solig'i alohida-alohida qo'llaniladi (Turkiya, Fransiya, O'zbekiston).

Quyida keltirilgan jadvalda xorijiy mamlakatlarda qo'llaniladigan ko'chmas mulk solig'ining elementlari ko'rsatib o'tilgan.

2 Muallif tomonidan mustaqil o'rganishlari asosida shakllantirilgan.



## 2-jadval: Jahon amaliyotida ko'chmas mulk solig'ining elementlari<sup>3</sup>

No	Soliq elementlari	Izoh
1	Soliq to'lovchilar	Ko'chmas mulk egalari va ijarchilar
2	Soliq obyekti	Yer va mulklar (yer ustidagi bino, inshoot va boshqalar)
3	Soliq bazasi	Bozor qiymati yoki baholash organlari tomonidan bozor yaqinlashtirilgan baholangan qiymat
4	Ko'chmas mulk qiyamatini aniqlash usullari	Daromad usuli, xarajat usuli, taqqoslash usuli
5	Ko'chmas mulkni baholovchi organlar	Soliq organlari, baholash organlari
6	Soliq stavkasi	Qat'iy va foizlarda
7	Imtiyoz	Ijtimoiy qatlam doirasidagi aholiga beriladi.
8	Soliq turi	Mahalliy

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rindiki, soliqqa tortish maqsadida ko'chmas mulkni qiyamatini bozor baholarida belgilanishi asosiy soliq bazasi hisoblanadi.

Ko'chmas mulkni kadastr yoki bozor narxiga yaqin qilib belgilanishi mulkning raqobatbardoshligini oshirib, mulk egasining huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ko'chmas mulk qiyamatini aniqlash usullarining turli xilligi har ikkala tomonning o'zaro manfaatlariga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarda ko'chmas mulk solig'i o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli mulk solig'ini belgilash orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda hozirda isloh qilinayotgan mol-mulkni soliqqa tortish tizimi uchun rivojlangan mamlakatlarning soliq undirish mexanizmlarini o'rganib chiqib uning mammalakatimiz iqtisodiyotiga, aholi mintalitetidan kelib chiqib qabul qilish muhim ahamiyatga ega.

Quyida keltirilgan jadvalda xorijiy mamlakatlarda mol-mulk solig'ini undirishda ayrim elementlar ko'rsatib o'tilgan:

## 3-jadval: Dunyo mamlakatlarida mol-mulk solig'ini undirishdagi ayrim elementlar<sup>4</sup>

No	Dunyo mamlakatlari	Soliq obyekti	Soliq stavkasi	Imtiyozlar
1	Belorussiya Respublikasi	Kadastr qiyatidan. Kvartiralar, hovlilar dachalar, bog' uylari,	0,1- jismoniy shaxs va yakka tartibdagи tadbirkorlar 0,2- ikki va undan ortiq kvartiraga ega bo'lgan jismoniy shaxs va yakka tartibdagи tadbirkorlik subyektlari	Jismoniy shaxslar uchun: - jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan ko'p xonali uyning bir xonasi; - pensionerlar; - I va II guruh nogironlari; - Yuridik shaxslar uchun: - obyekt ishga tushirilgan birinchi yili koeffitsiyent belgilanmaydi: 2 yili – 0,2 koeffitsiyent; 3 yili – 0,4 koeffitsiyent; 4 yili – 0,6 koeffitsiyent; 5 yili – 0,8 koeffitsiyent; qolgan yillar soliq stavkasining o'zi qo'llaniladi.
2	Rossiya Federatsiyasi	Kadastr qiyatidan. Ko'chmas mulk, kvartira, uylar, yashash uchun mo'ljallangan har qanday obyektlar;	0,1% – 50 kv. m. oshmaydigan obyektlar, yashash va tomorqa xo'jaligini olib borishga mo'ljallangan va qurilishi tugallanganmagan yashash uchun mo'ljallangan joylari uchun; 2% –300ming rublgacha summaga baholangan mulklarga nisbatan	Imtiyoz summasi kvadrat metrga nisbatan beriladi: - 50 kv. m. – uylar uchun; - 20 kv. m. – kvartiralar uchun; - 10 kv. m. qiyatidan bir xona uchun; 0,5% – boshqa barcha soliq obyektlaridan. Shuningdek: - urush veteranlari; - pensionerlar; - I,II guruh nogironlari soliqdan to'liq ozod etiladi;

3 Muallif tomonidan mustaqil o'rganishlari asosida shakllantirilgan.

4 Mallif tomonidan mustaqil o'rganishlar asosida shakllantirilgan.



3	Kanada	Yer va mulkning birlashgan holdagi bozor qiymatidan.	1–2% ko'chmas mulkning qiymatidan.	Quyidagi jismoniy shaxslar soliqdan ozod etiladi: - pensionerlar; - kam ta'minlanganlar; - pensioner ota-onasini ta'minlaydigan oilalar; - pullik tibbiy xizmatdan foydalanuvchilar; - dori vositalarini o'zlarini hisoblaridan xarid qiladigan fuqarolar
4	Fransiya	Mulkning bozor qiymatidan. Ko'chmas mulkda yashaganlik uchun soliq, ko'chmas mulk solig'i	0,5–1,5% mulkning bozor qiymatidan.	Quyida keltirilganlar soliq to'lovchi hisoblanmaydi: - davlat yoki mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo'lgan bino va inshootlar; - boshqa davlatga tegishli bo'lgan binolar (elchixonalar); - davlat tashkilotlari binolari (universitetlar, gospitallar va boshqalar); - diniy tashkilotlar binolari; - qishloq xo'jaligi faoliyatini olib borish uchun foydalaniladigan qurilmalar

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki har bir mamlakatlarda ko'chmas mulkni soliqqa tortishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

So'nggi yillarda soliq tizimini isloq qilish maqsadida Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi mutaxassislari jalb qilinib ular tomonidan bildirilgan tegishli takliflar o'rganib chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

O'zbekiston amaliyotida 2018-yilning 1-yanvariga qadar bino va inshootlarning inventar narxida belgilash tizimi amaliyotda edi. Bu tizimning o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda mulklarning haqiqiy real bozor narxi inobatga olinmaydi. Bu esa o'z navbatida bu soliqni undirishdagagi xarajatlarni oshishiga, davlat byudjetiga ushu soliq turi bo'yicha tushumlar miqdorini kamayishiga olib keladi.

Quyida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasida mol-mulk solig'ini undirishda qo'llanilgan qiymatlar aks ettirilgan:

**4-jadval: Ko'chmas mulkka nisbatan soliq hisoblashda shartli belgilangan qiymatlar (mln. so'm.)**

No	Yillar	Viyoyat markazlari va Toshkent shahri uchun	Boshqa shaharlar va qishloq joylarda	Izoh
1	2016	20,328	8,833	Inventar bahosi mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
2	2017	20,328	8,833	Inventar bahosi mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
3	2018	210,0	90,0	Kadastr qiymati mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
4	2019	210,0	90,0	Kadastr qiymati mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
5	2020	210,0	84,0	Kadastr qiymati mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
6	2021	210	84,0	Kadastr qiymati mavjud bo'lmaganda shartli qiymat
7	2022	210	84,0	Kadastr qiymati mavjud bo'lmaganda shartli qiymat

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2018-yilga qadar ko'chmas mulkka nisbatan soliq hisoblashda shartli belgilangan qiymatlar 20,328 mln. so'mni va 8,833 tashkil qilganligi, bu qiymatlar mulkning haqiqiy qiymatini o'zida aks ettirmagan. Bu qiymatlar natijasida hisoblangan soliq summasi ham iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamagan deb hisoblaymiz.

Soliq islohotlari olib borilishi va ko'chmas mulklardan samarali foydalanimishini ta'minlash maqsadida 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab soliq solish maqsadida ko'chmas mulk obyektlari qiymatini kadastr baholarda belgilash tizimi joriy qilinishi natijasida mulkning bozor narxiga yaqin kadastr qiymati shakllandi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli qo'shimchalar kiritilib, 2020-yilda mol-mulkning shartli qiymati uchun baza qirq ikki million so'm qilib belgilandi.

Mol-mulkning shartli qiymati Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek, viyoyat markazlarida shartli qiymatning besh baravari, boshqa shaharlarda va qishloq joylarda esa shartli qiymatning ikki baravari miqdorida kam bo'limasligi belgilab qo'yildi.




1-diagramma: Byudjet tushumlarida mol-mulk solig'ining ulushi (mln. so'm) 5

Dunyodagi ijtimoiy iqtisodiy vaziyatlar davlatlarning iqtisodiyotiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Jumladan 2019–2020-yillarda koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, pandemiya davridan keyin davrda tadbirdorlik subyektlariga faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish, pandemiya oqibatlarini yumshatish maqsadida soliqlardan ozod etish, bo'lib-bo'lib to'lash, stavkalarni pasaytirilishi natijasida soliq tushumlarida kamayish kuzatildi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rindan 2021–2022-yillardan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalarining indeksatsiyalanishi, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha kamaytirilgan soliq stavkalari miqdorining ortishi, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini indeksatsiya qilinishi natijasida tushumlarning o'sishi kuzatildi [9].

Rivojlangan davlatlar tajribasida ko'chmas mulkdan undiriladigan soliqlar jami soliq tushumlarida sezilarli o'ringa ega. Ushbu soliqlardan tushgan tushumlar mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu soliqlardan tushgan tushumlar hududlarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga, tadbirdorlikni rivojlantirishga yo'naltiriladi.



2-diagramma: Rivojlangan davatlarda ko'chmas mulkdan undiriladigan soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi<sup>6</sup>

5 Ushbu diagramma Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

6 Ochilov A. A. Mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish maqsadida jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari mexanizmi va ma'muriyatichiligi takomillashtirish. Magistrlik disertatsiyasi. – T., 2018. – 75-b.



Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda mulkdan soliq undirishning ulushi kam foizni tashkil etmoqda. Buning asosiy sabablari O'zbekiston Respublikasi Sh. M. Mirziyoyev 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmonida ko'rsatib o'tilgan yettinchi tizimli muammo "Mahalliy soliq va yig'imlarning ma'muriyatichiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiyamatini obyektiv aniqlashning imkonii mavjud emas" ligi hisoblanadi.

Shuningdek soliq xizmati organlari bilan kadastr tashkiloti ma'lumotlar bazasining o'zaro to'liq integratsiya yashashmaganligi oqibatida soliq to'lovchilarning ma'lumotlarida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Kadastr dasturlarida quyidagi kamchiliklar ko'rinoqda:

- Kadastr raqami berilgan obyektning egasi bilan haqiqatdagi egasining boshqaligi. Kadastr raqami terilganda mulk egasi boshqa shaxs bo'lib chiqadi.
- Bitta mulk egasining nomiga bir nechta kadastr raqamlari biriktirilgan.
- Kadastr tashkiloti dasturga obyekt kiritganda bu obyekt soliq organi bazasiga ma'lumot kiritilgan kunning o'zida ko'rinoqdi.

Bu ma'lumotlar soliq organining tegishli dasturiga ko'rinishi uchun ma'lum vaqt o'tishi kerak. Soliq to'lovchining ma'lumotlari kadastr tashkilotining kadastr hisobini yuritadigan dasturiga kiritilgach ma'lumotlar to'g'ridan to'g'ri soliq organining tegishli dasturi bazasiga ko'rinoqdi. Soliq to'lovchi to'lashi lozim bo'lgan soliq summasini bilishi uchun soliq organiga ma'lum vaqt o'tgandan so'ng qaytib kelishi lozim.

Kadastr tashkiloti dasturining to'g'ri shakllantirilmaganligi soliq undirishda noqulayliklarni, soliq to'lovchilar soni va bazasini aniqlash imkoniyatini murakkablashtirmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'lallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli Qarorining 12-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda xalqaro tajribani o'rgangan holda 2019-yil 1-mayga qadar ikkinchi va undan keyingi uy-joy fondi obyektlari, shuningdek, dala-hovilari uchun jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning oshirilgan stavkalarini qo'llash tartibi bo'yicha Vazirlar Mahkamasi takliflar kiritish ko'rsatib o'tilgan edi [11].

Bizning fikrimizcha yuqoridaq jadvalga ko'rsatilgan mamlakatlar ichida Belorussiyada shunday soliqqa tortish tizimi joriy etilib amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Belorussiya tajribasining ayrim jihatlaridan foydalnishni taklif qilgan bo'lardik.

Hozirgi kunda jismoniy shaxslar egaligidagi mol-mulk va yer soliqlarini hisobga olishda, belgilangan taribda soliqlar hisoblanishida, imtiyozlar qo'llashda va boshqa bir qator soliq elementlarini hisobga olishda takrorlanishlar va yer solig'i hisoblashning murakkabligi mavjudligi soliq to'lovchilar uchun qiyinchilik va muammolarni tug'dirmoqda.

Jumladan:

- Bir obyekt uchun ikkita shaxsiy kartochka yuritiladi;
- Bir obyekt uchun ikkita hisob raqamga to'lovlar amalga oshiriladi;
- Soliq to'lovchilar bitta obyekt uchun ikkita hisob raqamga to'lovlarini to'lashlari lozim.

Soliq organlarining dasturiy mahsulotlari jismoniy shaxslarga mahalliy soliqlarni to'lash bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqini beruvchi tashkilotlarning ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinmagan. Masalan, sog'ligi tufayli nogironlik toifasini berish vakolatiga ega tashkilotlar, fuqarolarning harbiy harakatlarda ishtiroy etganligini tasdiqlovchi vakolatli organlarning ma'lumotlar bazasi, fuqaroning ijtimoiy holati(yolg'iz ona, boquvchisini yo'qotganlik va boshqalar)

Yuqoridaqilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib ko'chmas mulk solig'i amaliyotiga to'liq o'tish, shuningdek, mulklarni soliqqa tortishda tabaqlashgan stavkalarni qo'llash.
2. Dasturiy mahsulotda ishslash tezligi oshadi, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan 7 mln dan ortiq shaxsiy kartochka kamayadi, tegishli bo'lgan mol-mulk yoki yer soliqlaridan mavjud qarzdorlik ortiqcha to'lovlar hisobidan kamayadi.
3. Soliq organlarining dasturiy mahsulotlarini jismoniy shaxslarga mahalliy soliqlarni to'lash bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqini beruvchi tashkilotlarning ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish. Masalan, sog'ligi tufayli nogironlik toifasini berish vakolatiga ega tashkilotlar, fuqarolarning harbiy harakatlarda ishtiroy etganligini tasdiqlovchi vakolatli organlar, fuqaroning ijtimoiy holati (yolg'iz ona, boquvchisini yo'qotganlik va boshqalar)ni tasdiqlovchi tashkilotlar.



Buning natijasida soliqni hisoblab chiqarish mexanizmi soddalashadi, adolatlilik, shaffoflik prinsipi ta'minlanadi. Soliqni hisobini yuritish, to'lash jarayoni soddalashib unga ketadigan xaratatlari kamayadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947сонли Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Кенэ, Ф. Физиократы. Избранные экономические произведения/ Ф. Кенэ, А. Р. Ж. Тюрго, П. С. Дюпон де Немур. [таж. франц., англ., нем.] – М.: Эксмо, 2008. – С. 1200.
4. Дрожжина И. А. Формировани систем налогообложени объектов недвижимости на основе дифференцированног подхода. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. – О., 2005. – С. 12.
5. Михина Е. В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. – М., 2005. – С. 6.
6. Логинова Т. А. Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. И. ф. н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати. – М., 2018. – С. 7.
7. Niyazmetov I. M. Coliq yukining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga va byudjet daromadlariga ta'siri tahlili. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diis. – T., 2008. – С. 99.
8. Boymurotov, S. R. mahalliy byudjetlar daromadlarini barqaror-lashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari. RhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan disser-tatsiya avtoreferati. – T., 2021. – 57-b.
9. Журнал "Economics" БАТАШЕВ Р. В. Налог на имущество физических лиц: переход на кадастровую оценку и иные проблемы налогообложение. №12–4(39) 2019. – С. 27–31.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makro-iqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli Qarori.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.